









## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 399,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 316,8 mln. AQSh dollariga kamaydi va 55,8 % ni tashkil etdi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>715,9</b>	<b>399,1</b>	<b>55,8</b>	<b>x</b>
<b>Eksport</b> 	<b>101,4</b>	<b>161,1</b>	<b>158,8</b>	<b>100,0</b>
 <i>tovarlar</i>	101,1	160,7	158,9	99,8
 <i>xizmatlar</i>	0,3	0,4	133,3	0,2
<b>Import</b> 	<b>614,4</b>	<b>238,0</b>	<b>38,7</b>	<b>100,0</b>
 <i>tovarlar</i>	614,4	238,0	38,7	100,0
 <i>xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b> 	<b>-513,0</b>	<b>-76,9</b>	<b>x</b>	<b>x</b>

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 161,1 mln. AQSh dollariga (58,8 % ga oshdi) va import hajmi 238,0 ming. AQSh dollariga (61,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -76,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**  
(2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	106,6	46,4	60,2	26,7
Koreya	68,8	0,0	68,8	17,2
Turkiya	61,5	34,3	27,1	15,4
Rossiya Federatsiyasi	57,1	36,2	20,9	14,3
Qozog'iston	23,8	12,5	11,3	6,0
Litva	11,3	0,2	11,1	2,8
Germaniya	7,4	0,3	7,0	1,8
Italiya	7,1	4,9	2,2	1,8
Tojikiston	6,0	3,4	2,7	1,5
Pokiston	5,7	5,3	0,4	1,4

Viloyatimiz jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (27,6 %), Koreyada (17,2 %), Turkiyada (15,4 %), Rossiya Federatsiyasida (14,3 %), Qozog'istonda (6,0 %), Litvada (2,8 %), Germaniyada (1,8 %), Italiyada (1,8 %), Tojikistonda (1,5 %) va Pokistonda (1,4 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya va Koreya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.

Rossiya Federatsiyasi  
57,1 mln. AQSh dollari



Qozog'iston  
23,8 mln. AQSh dollari



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 dan ortiq yirik hamkor-davlatlar orasidan 8 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (15,3 mln. AQSh dollari), Turkiya (7,2 mln. AQSh dollari), Pokiston (4,9 mln. AQSh dollari), Italiya (2,7 mln. AQSh dollari), Afgoniston (4,3 mln. AQSh dollari), Qirg'iziston (3,0 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (1,1 mln. AQSh dollari) va Tojikiston (0,7 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI  
(2021-yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>113,7</b>	<b>134,2</b>	<b>106,6</b>
Eksport	7,3	10,0	46,4
Import	106,4	124,2	60,2
Saldo	-99,1	-114,2	-13,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>25,3</b>	<b>17,7</b>	<b>68,8</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	25,3	17,7	68,8
Saldo	-25,3	-17,7	-68,8
<b>Turkiya</b>	<b>63,3</b>	<b>54,0</b>	<b>61,5</b>
Eksport	23,2	27,2	34,3
Import	40,2	26,7	27,1
Saldo	-17,0	0,5	7,2
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>48,8</b>	<b>43,4</b>	<b>57,1</b>
Eksport	25,8	27,8	36,2
Import	23,0	15,7	20,9
Saldo	2,7	12,1	15,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>29,5</b>	<b>13,8</b>	<b>23,8</b>
Eksport	17,4	10,1	12,5
Import	12,0	3,7	11,3
Saldo	5,4	6,4	1,1
<b>Litva</b>	<b>30,2</b>	<b>31,3</b>	<b>11,3</b>
Eksport	0,0	0,0	0,2
Import	30,2	31,3	11,1
Saldo	-30,2	-31,3	-10,9



Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Germaniya</b>	<b>3,3</b>	<b>4,2</b>	<b>7,4</b>
Eksport	0,5	0,1	0,3
Import	2,8	4,1	7,0
Saldo	-2,3	-3,9	-6,7
<b>Italiya</b>	<b>2,3</b>	<b>6,7</b>	<b>7,1</b>
Eksport	2,1	3,3	4,9
Import	0,1	3,5	2,2
Saldo	2,0	-0,2	2,7
<b>Tojikiston</b>	<b>8,7</b>	<b>9,0</b>	<b>6,0</b>
Eksport	8,4	9,0	3,4
Import	0,3	0,0	2,7
Saldo	8,1	9,0	0,7
<b>Pokiston</b>	<b>0,8</b>	<b>2,2</b>	<b>5,7</b>
Eksport	0,6	2,2	3,3
Import	0,2	0,0	0,4
Saldo	0,3	2,2	4,9
<b>Qirg'iziston</b>	<b>5,2</b>	<b>3,6</b>	<b>4,9</b>
Eksport	5,0	3,1	3,9
Import	0,2	0,5	1,0
Saldo	4,8	2,6	3,0
<b>Afg'oniston</b>	<b>1,3</b>	<b>1,2</b>	<b>4,5</b>
Eksport	1,3	1,2	4,4
Import	0,0	0,1	0,1
Saldo	1,3	1,1	4,3
<b>Eron</b>	<b>5,8</b>	<b>2,7</b>	<b>4,2</b>
Eksport	1,8	0,8	1,1
Import	4,0	2,0	3,2
Saldo	-2,2	-1,2	-2,1




Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Ukraina</b>	<b>8,3</b>	<b>1,1</b>	<b>3,8</b>
Eksport	4,3	0,8	1,3
Import	3,9	0,3	2,5
Saldo	0,4	0,5	-1,1
<b>Gonkong</b>	<b>1,2</b>	<b>4,6</b>	<b>3,1</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1,2	4,6	3,1
Saldo	-1,2	-4,6	-3,1
<b>Polsha</b>	<b>17,5</b>	<b>6,2</b>	<b>3,1</b>
Eksport	0,5	1,1	1,4
Import	17,0	5,1	1,7
Saldo	-16,5	-3,9	-0,3
<b>Avstraliya</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>2,5</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,0	0,0	2,5
Saldo	0,0	0,0	-2,5
<b>Hindiston</b>	<b>2,0</b>	<b>1,1</b>	<b>2,2</b>
Eksport	0,1	0,1	0,2
Import	1,9	1,0	1,9
Saldo	-1,8	-0,9	-1,7
<b>Belarus</b>	<b>5,8</b>	<b>4,0</b>	<b>1,9</b>
Eksport	0,6	0,9	0,2
Import	5,3	3,1	1,6
Saldo	-4,7	-2,2	-1,4
<b>Belgiya</b>	<b>2,0</b>	<b>0,1</b>	<b>1,5</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	2,0	0,1	1,5
Saldo	-2,0	-0,1	-1,5

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga tayanib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 24,7 % ni tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan ulushi 2,3 martaga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning 2021- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 75,3 % tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan 15,7 % ga kamaydi.

## JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 152 tani tashkil etib, ular tomonidan 161,1 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 58,8 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (65,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,2 %), turli xil tayyor buyumlar (9,1 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (4,5 %), mashina va asbob-uskunalari (1,3 %) noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,6 %), boshqa tovarlar (0,6 %), hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (0,0 %) guruxi hissasiga to'g'ri kelmoqda.






**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2021- yil yanvar- oktabr mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>161,1</b>	<b>158,8</b>	<b>100,0</b>	<b>58,5</b>	<b>111,2</b>	<b>100,0</b>	<b>102,6</b>	<b>210,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,1	126,8	16,2	9,5	85,9	16,3	16,6	174,4	16,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	27,2	0,0	0,0	17,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,1	212,4	2,5	1,0	357,3	1,7	3,1	187,7	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,7	0,0	0,0	0,9	0,0	0,0	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	7,2	304,0	4,5	1,5	112,7	2,6	5,7	549,2	5,6
Sanoat tovarlari	105,6	172,5	65,5	29,5	116,6	50,4	76,0	211,9	74,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,1	162,9	1,3	2,0	181,9	3,3	0,1	56,0	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	14,7	113,2	9,1	14,7	114,9	25,2	0,0	0,0	0,0
Boshqa tovarlar	1,0	0,0	0,6	0,0	0,0	0,0	1,0	0,0	1,0
Xizmatlar	0,4	106,7	0,2	0,3	135,6	0,5	0,1	54,9	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari guruhiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(2021-yil yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	40,4	20,3	16,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,4	1,9	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,7	0,7	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	2,3	4,5
Sanoat tovarlari	34,8	60,4	65,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,0	1,2	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	11,4	12,8	9,1
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,6
Xizmatlar	0,5	0,3	0,2

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan sanoat tovarlari guruhida o'sish kuzatildi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
EKSPORTI TARKIBI  
(2021- yil yanvar-oktabr )**


XSST bo'limi nomi	Min. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	19,9	108,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4,5	4,2 m
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,8	3,5 m
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	5,8 m
Shakar va shakarli mahsulotlar	0,07	178,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3,1	2 m
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	67,2
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	0,0	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	98,0
Yog' urug'lari	0,6	6,3 m
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0

<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	3,8	8,9 m
Boshqa joyda tafsiflanmagan kimyoviy mahsulotlar	0,3	187,7
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2,6	2,7 m
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,5	66,7
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	96,2	177,5
Yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,09	22,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	8,8	157,3
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,4	49,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1,8	160,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,09	90,8
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	0,2	19,5 m
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	14,6	124,1
Poyabzal	0,0	0,0
Har xil tayyor buyumlar	0,04	10,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,07	182,2

O'tgan yilga nisbatan umumiy eksport hajmi oshdi va MDH mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2020-yil yanvar-oktabr oyidagi 51,9 % dan, 2021-yilning yanvar-oktabr oyida 36,3 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning shu davrida 48,1 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar- oktabr oyida 63,7 % ga oshdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-oktabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida, Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 28,8 %), Rossiya Federatsiyasi (22,5 %), Turkiya (21,3 %), Qozog'iston (7,7 %), Pokiston (3,3 %), Italiya (3,0 %) va Afg'oniston (2,7 %)

davlatlari egallab turibdi, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,4 foizni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2021- yil yanvar-oktabr, % da)**



2021- yilning yanvar-oktabr oyida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Xitoy yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Rossiya Federatsiyasi egalladi. Rossiya Federatsiyasidan ozgina ortda qolgan Turkiya uchinchi pog'onani Qozog'iston esa to'rtinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 37 ta davlat) 35 ta davlat bilan amalga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(2021 yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		Jami eksportga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da		O'zni	
	2020- y.	2021- y.	O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2020- y.	2021- y.
Xitoy	10,0	46,4	4,6 m	28,8	4	1
Rossiya	27,8	36,2	130,4	22,5	1	2
Turkiya	27,2	34,3	126,0	21,3	2	3
Qozog'iston	10,1	12,5	123,4	7,7	3	4
Pokiston	2,2	5,3	2,4 m	3,3	8	5
Italiya	3,3	4,9	149,7	3,0	6	6
Afg'oniston	1,2	4,4	3,8 m	2,7	9	7
Qirg'iziston	3,1	3,9	126,7	2,4	7	8
Tojikiston	9,0	3,4	37,4	2,1	5	9
Polsha	1,1	1,4	126,3	0,9	10	10
Ukraina	0,8	1,3	169,4	0,8	13	11
Eron	0,8	1,1	143,0	0,7	14	12
Kanada	0,0	1,0	0,0	0,6	0	13
Ozarbajjon	0,2	0,5	2,6 m	0,3	20	14
Vetnam	0,1	0,5	8,3 m	0,3	28	15
Gruziya	0,3	0,4	124,8	0,2	17	16
Germaniya	0,1	0,3	2,9 m	0,2	24	17
BAA	0,1	0,3	2,9 m	0,2	23	18
Turkmaniston	0,7	0,3	44,8	0,2	15	19
Belarus	0,9	0,2	27,7	0,2	11	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari guruhlar kiradi.



**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>10,0</b>	<b>46,4</b>	<b>27,8</b>	<b>36,2</b>	<b>27,2</b>	<b>34,3</b>	<b>10,1</b>	<b>12,5</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,2	5,0	2,7	1,4	4,3	5,0	5,8	5,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	1,0	0,0	0,2	1,0	1,4	0,0	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	4,6	0,0	0,0	0,0	0,1	0,2	0,4
Sanoat tovarlari	6,6	35,8	16,7	20,2	21,9	27,7	4,0	5,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	0,0	0,5	1,3	0,0	0,0	0,0	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	7,7	12,8	0,0	0,0	0,0	0,1
Xizmatlar	0,0	0,0	0,2	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0




Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya davlatlariga eksportning asosiy ulushi oziq-ovqat maxsulotlari va sanoat tovarlari guruhi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,2 % ini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 33,3 % ga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (75,6) % transport xizmatlari (12,1 %) va safarlar (turizm) (12,3 %) xizmatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



**XIZMATLAR EKSPORTI**  
(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari )

Xizmatlar	2020- yil	2021- yil	O‘sish sur‘ati, % da
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>0,3</b>	<b>0,4</b>	<b>133,3</b>
Transport xizmatlari	0,1	0,04	40,0
Safarlar (turizm) xizmatlari	0,04	0,04	114,4
Moliyaviy xizmatlar	0,2	0,3	150,0


## JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)

2021-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning importyorlari soni 372 tani tashkil etib, ular tomonidan 238,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 38,7 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar import qilinishi ta'minlandi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (64,6 %) va sanoat tovarlari (11,1 %) guruhi hisobiga to'g'ri keladi.



### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 376,4 mln. AQSh dollariga kamaydi va 238,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami import</b>	<b>238,0</b>	<b>38,7</b>	<b>100,0</b>	<b>40,2</b>	<b>167,2</b>	<b>100,0</b>	<b>197,8</b>	<b>33,5</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,2	180,1	7,2	13,2	184,3	32,9	4,0	167,5	2,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	44,0	1,4	0,2	5,0	0,5	3,2	89,4	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,8	150,3	1,2	2,5	157,3	6,3	0,3	110,5	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	0,0	0,1	0,3	0,0	0,7	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23,7	143,3	10,0	4,8	164,6	12,0	18,9	138,7	9,5
Sanoat tovarlari	26,5	77,2	11,1	8,2	2,3 m	20,3	18,3	59,5	9,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	153,8	29,3	64,6	9,7	3,1 m	24,0	144,1	27,7	72,9
Turli xil tayyor buyumlar	10,4	51,9	4,4	1,3	86,7	3,3	9,1	49,0	4,6
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan sanoat tovarlari 9,2 % dan 11,1 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 4,9 % dan 7,2 % ga oshdi. Mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi esa 67,2 % dan 64,6 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,9	1,6	7,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	1,2	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,3	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	7,4	2,7	10,0
Sanoat tovarlari	9,2	5,6	11,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	67,2	85,4	64,6
Turli xil tayyor buyumlar	6,9	3,3	4,4
Xizmatlar	0,1	0,0	0,0



**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI  
(2021- yil yanvar-oktabr)**



Mahsulot nomi	Min. AQSh dollari	2020-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,5	2,1 m
Tirik hayvonlar	8,7	4,5 m
Sut mahsulotlari	0,7	94,5
Meva va sabzavotlar	0,8	4,4 m
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,3	2 m
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1,5	61,0
Go'sht va g'osht mahsulotlari	0,5	27,6
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	0,1	3,2
Metall rudalari va metall parchalari to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	0,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2,2	66,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1,0	4,4 m
Kauchuk va rezina	0,0	0,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,4	77,1
Ko'mir, koks va briketlar	1,4	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	0,3	0,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	6,3	2,2 m
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,4	98,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	6,3	126,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,3	151,5



Organik kimyo moddalari	2,9	143,6
Kraska va bo'yoq vositalari	0,7	3 m
Noorganik kimyo moddalari	2,6	2,7 m
Birlamchi bo'lmagan plastik	1,9	72,1
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	5,9	64,7
Metalldan tayyorlangan buyumlar	4,1	69,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4,1	72,9
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	0,9	106,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,3	106,7
Rangli metall	2,2	53,6
Qog'oz va karton	0,4	101,8
Yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,5	127,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46,3	47,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	22,9	5,9
Avtomobillar va extiyot qismlari	64,8	710
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunalari	7,0	81,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	7,2	62,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	1,3	45,2
Energogenerator mashina uskunalari	2,2	65,7
Boshqa transport uskunalari	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4,5	74,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,2	25,5
Har xil tayyor buyumlar	1,7	124,8
Poyafzal	0,01	0,0
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,5	2,5 m
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,2	27,2 m



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar importi bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 50 ta davlat) 56 ta davlat bilan amalga oshdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK  
HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-oktabr)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		Jami importga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da		O'zni	
	2020- y.	2021- y.	O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2020- y.	2021- y.
Koreya Respublikasi	17,7	68,8	3,9 m	28,9	5	1
Xitoy Xalq Respublikasi	124,2	60,2	48,5	25,3	2	2
Turkiya	26,7	27,1	101,6	11,4	4	3
Rossiya	15,7	20,9	133,3	8,8	6	4
Qozog'iston	3,7	11,3	3,1 m	4,8	12	5
Litva	31,3	11,1	35,6	4,7	3	6
Germaniya	4,1	7,0	173,7	3,0	11	7
Eron	2,0	3,2	160,6	1,3	16	8
Gonkong	4,6	3,1	67,8	1,3	10	9
Tojikiston	0,0	2,7	75,5 m	1,1	36	10
Avstraliya	0,6	2,5	4,5 m	1,1	21	11
Ukraina	0,3	2,5	7,9 m	1,0	25	12
Italiya	3,5	2,2	62,6	0,9	14	13
Hindiston	1,0	1,9	194,1	0,8	18	14
Polsha	5,1	1,6	32,4	0,7	8	15
Belarus	3,1	1,6	51,6	0,7	15	16
Belgiya	0,1	1,5	14,4 m	0,6	30	17
Bangladesh	0,8	1,2	151,5	0,5	19	18
Avstriya	5,0	1,2	23,4	0,5	9	19
Qirg'iziston	0,5	1,0	2 m	0,4	22	20



2021 yil yanvar-oktabr oyida import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmi 28,9 % ulushi bilan birinchi o'rinni egallab, Xitoy Xalq Respublikasini umumiy import hajmida 25,3 % ulushi bilan ikkinchi o'ringa tushirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar Koreya Respublikasi (28,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (25,3 %), Turkiya (11,4 %), Rossiya Federatsiyasi (8,8 %), Qozog'iston (4,8 %), Litva (4,7 %) va Germaniya (3,7 %) jami importning 86,8 % ulushini egalladi va 206,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Litva davlatlari tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (72) 221 51 26  
bo'limi**